



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM BILAN TARBIYANING MUTANOSIBLIGINI TA'MINLASH BORASIDAGI MUAMMOLAR

J.X.Kozixodjaev

*"Huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi,
yuridik fanlar nomzodi,
Farg'ona davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Oliy ta'lism tizimida ta'lism bilan tarbiyaning mutanosibligini ta'minlash borasida yuzaga keladigan muammolar, ularning taktik yechimlariga bag'ishlangan. Ularning yechimini hal qilishda ustozlar bilan bir qatorda, talabalar ota-onalarining bevosita ishtiroklari ijobiy natija berishi to'g'risida takliflar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, tarbiya, innovatsiya, ta'lism samaradorligi, ta'lism va tarbiyaning mutanosibligi, tarbiyaviy muammolar.*

Annotation: *this article is devoted to the problems that arise in the higher education system regarding ensuring the proportionality of education with education, their tactical solutions. In addition to mentors in solving their solution, proposals have been covered that direct participation of students ' parents will give a positive result.*

Keywords: *education, upbringing, innovation, educational efficiency, proportionality of education and upbringing, educational problems.*

Hozirgi kunda Oliy ta'lism tizimidagi mavjud tarbiyaviy muammolar o'ta dolzarb hisoblanadi. Bu muammolar barchani tashvishga solar ekan, talabalarning tarbiyaviy jarayoniga Oliy ta'limgining barcha xodimlari bilan bir qatorda, ularning ota-onalarini ham faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. Shundagina bu muammolarni yechimi ijobiy tomonga o'zgarishi mumkin. Vaholanki, ta'lism bilan tarbiya bevosita uzviy bog'lanishda bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiruvchi sifatida qaralsa, ana shunda ta'lism borasida ham, tarbiya borasida ham kutilgan natijalarga erishiladi. Chunki, tarbiyada yo'l qo'yilgan nuqson ta'limgining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, talabalarga tarbiya berishda ularning ota-onalari bilan bir qatorda, ustozlar ham bu jarayonga ma'suldirlar. Ammo, ustozlar bu jarayonga kirishishlari uchun birinchi galda, o'zlari tarbiyaning barcha jihatlari bo'yicha ularga namuna bo'lislari va o'rnak ko'rsatishlari darkor. Chunki, bular tarbiyaning eng asosiy omillari hisoblanadi. Vaholanki, qush inida ko'rganini qilganidek, talabalarning aksariyati ustozning ijobiy va salbiy tomonilaridan, aynan o'zlarining ta'lism olish, hamda kelgusidagi ish faoliyatida namuna sifatida foydalanadilar. Vaholanki, ustozlarning ta'lism va tarbiya bilan bog'lik faoliyati jarayonida yo'l qo'ygan salbiy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

holatlari tufayli, o'z hurmatini talabalar oldida yo'qotadilar, hamda ular orasida muhakoma ob'ektiga aylanadilar. Qachon ustoz shogirdlar hurmatiga sazovor bo'ladi? Qachonki u, o'z sohasining bilimdoni, ular bilan mashg'ulot olib borishning uddaburoni bo'lgan taqdirda. Shuning uchun fanni o'rgatish jarayonida ustoz, o'qitishning zamonaviy interaktiv metodlari bilan bir qatorda, mashg'ulot turiga qarab, «davra suhbatlari», «kollokviumlar», «aqliy hujum», «qora quti», «klaster» kabi usullar, hamda test so'rovlari, ekspress-so'rovlari, kompyuter texnologiyalarini qo'llash, shuningdek fan sohasi bo'yicha mavjud muammolarni o'yin uslubida yechish, bu borada o'quv guruhlarida bahslashuv vaziyatini yuzaga keltirish yo'li bilan ularni to'g'ri hal etishni o'rgatish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Hozirgi kunda ustozlarda shunday fazilat bo'lishi shart. Chunki, iqtidorli talabalarning aksariyati fan sohalari bo'yicha doimiy izlanishda bo'lishib, egallagan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va uning doirasini kengaytirish xoxish-istagida yashaydilar. Vaholanki, u yoki bu fan sohasi bo'yicha ustozlariga qaraganda bilimdon bo'lgan talabalar, ularini mensimaslik, hurmat qilmaslik, chaqiruvlariga labbay deb, - javob bermaslik holatlarini kuzatish mumkin. Ustozlarga nisbatan bunday salbiy munosabatda bo'lgan shogirdlar, qolgan ustozlariga ham shunday bo'lishni odat tusiga kiritishib, ularning tarbiyasida degradaqiya paydo bo'ladi. Shuning uchun ustoz o'zidagi mavjud salbiy tomonilarini shogirdga namoyon qilmasligi zarur. Shu bois, ustoz o'z ustida ishlashi, bilim berishning yangi texnologiyalarini yaratishi, shogirdlar ongiga innovatsion tadqiqotlar olib borishni singdirishi zamon talabidir. Ana shunda ular o'rtasida ko'rinas parda yuza kelib, uning ortidan shogird, ustoziga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Biz, bu holatni quyidagicha asoslab bermoqchiman.

Inson faoliyatining barcha jihatlari — ular ish yoki ilm olish bo'ladimi, bari bir — intizomga borib taqaladi. Chunki intizomning o'zagini tarbiya tashkil etadi. Tarbiya to'g'risida gap ketar ekan, bu jarayon farzandning to'g'ri shakllanishida nachog'liq muhim ekanligi ikki rivoyatda odilona ko'rsatilgan. Jumladan, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo Sallallohi Alayhi Vassallamning qabiladoshlaridan biri, men farzandimning tarbiyasini qachondan boshlasam ekan, deb maslahat olish uchun u zotga murojaat etganlarida, u kishi farzandingiz necha yoshda deb so'rabdilar. Bir oylik degan javobni eshitgach, payg'ambarimiz "Siz tarbiya berishda o'n oyga kechikibsiz" deb, - javob bergen ekanlar.

Ul zotning bu javobi chuqr ma'noga ega ekanligini yana bir rivoyat orqali izohlab bermoqchimiz. Bir ulamoning farzandi birovlarining haqiga xiyonat qilishi va tekkanga tegib, tegmaganga kesak otishi haqida unga arz qilganlarida, u bu holga taajjublanib, hech qachon o'z farzandini harom luqma bilan boqmaganini va unga to'g'ri tarbiya berishda xatolikka yo'l qo'ymanini o'yabdi. Va bo'lgan hodisani umr yo'ldoshiga so'zlab beribdi. Bu voqeani eshitgan umr yo'ldoshi farzandiga homiladorlik davrini eslab, olmaga boshi qorong'u bo'lganida qo'shnisining olma



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

daraxtidan uning rozilgisiz bir dona olmani uzib yeganini turmush o'rtog'iga so'zlab bergen ekan. Shunda ulamo o'z farzandi nima uchun noqobil bo'lganini anglab etibdi.

Har ikki rivoyatda tarbiya naqadar murakkab ekanligi, uning to'g'ri yo'lga qo'yishi esa turli omillarga bevosita bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

Farzandga tarbiyani yilda, oyda yoki kunda emas, balki har soat, daqiqa va soniyada berish zarur. Ana shundagina farzand etuk, o'z oilasi, xalqi va Vataniga sodiq inson bo'lib shakllanadi. Bejizga oila katta ijtimoiy muhit sifatida qaralmagan, chunki, farzand ham yaxshini, ham yomonni bevosita oiladan o'ziga qabul qilib oladi. Yoki oilaning farzand tarbiyasiga beparvoligi oqibatida, u turli ta'sirlar ostiga tushishi va uning tarbiyasida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida asosiy e'tiborni yoshlar tarbiyasi masalasiga qaratishni quyidagicha ta'kidlagan: "Ayniqsa dunyoda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik... kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas"[1].

Vaholanki, farzand qaerda bo'lmasin, doimo ota-onan nazoratida bo'lishi zarur.

Aynan kichik ijtimoiy muhit hisoblanmish yoru-do'stlar davrasi, mакtab, o'quv yurtlari va ish joylari ham farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lsalar-da, lekin ularning tarbiyasini samaradorligi ota-onan tarbiyasiga qaraganda anchagina past ko'rsatkichga ega. Chunki, bu muhitning tarbiyasi o'ziga xos bo'lib, u do'stlar o'rtasidagi munosabatni shakllantirish, o'quv jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'quv yurti va ish joyidagi tartib-qoidalarga qat'iy amal qilish bilan bevosita bog'liq. Shu sababdan kichik ijtimoiy muhitning tarbiyaviy faoliyati vaqtinchalik ko'rinishga ega bo'lib, oiladagi farzand tarbiyasidan tubdan farq qiladi.

Oila tarbiyasi katta ahamiyatga ega ekan, ota-onan farzandining nafaqat oilaviy munosabatlardagi xulqini tartibga solish bilan bog'liq tarbiyaviy ishlarni olib borishga, balki uning o'quv va ish davridagi tarbiyaviy jarayonlar yuzasidan vujudga keladigan muammolarini bartaraf etishga ham javobgardirlar. Ana shundagina ular farzand tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishlari mumkin. Ota-onan farzandining har bir xatti – harakatidan ogoh bo'lishi, uning tarbiyasida paydo bo'lgan o'zgarishlarni kuzatishi, ularni tahlil qilishi va yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi zarur. Bu o'z navbatida, farzand hayotda oqsoqlanishining oldini oladi va u jamiyatda munosib o'rin egallashiga turtki bo'ladi.

Qachon farzand tarbiyasi mukammal bo'ladi? Har ikki muhit farzand tarbiyasini hamkorlikda, bamaslahat olib borganida, uning predmetini to'g'ri tanlaganida va izchil amalga oshirganida bu darajaga erishiladi. Shu bois tarbiyaning asosiy mavzulari bo'lmish yaxshi bilan yomon, halol bilan harom,adolat bilan qabohat, ozodlik bilan tutqunlik kabilarni farqlay olishni farzandning ongiga singdirish zarur.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Ayniqsa, farzandlar tomonidan bularni farqlay bilishlari, ularning kelgusi faoliyatini to'g'ri shakllantirishlarida, yuksak ma'naviyat sohibi va ezgu niyatlarga ega bo'lislardan qo'l keladi.

Shu o'rinda ayrim takliflarni kiritmoqchimiz.

- o'tiladigan fanlar bo'yicha namunaviy dasturlar va darsliklar tayyorlash uchun Oliy ta'limi miqyosida mutaxassislik yo'nalishlariga mos bo'lgan ishchi guruuhlar tuzish, ularning tarkibini ixtisosligi o'zaro yaqin bo'lgan kafedralar hamda amaliyot xodimlari bilan shakllantirish;

- fan bo'yicha darslik tayyorlashdan oldin, ushbu fan bo'yicha ma'ruzalar kursini tayyorlash, tayyorlangan ma'ruzalar to'plami kamida ikki yil aprobaqiyadan o'tganidan so'ng, u bo'yicha darslik yaratish;

- kafedralarda o'tiladigan fanlar buyicha namunaviy dasturlar va darsliklar yaratishda ishtirok etadigan professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish, imkonи boricha yaqin va uzoq chet davlatlarga tajriba almashish uchun yuborish;

- fanlar bo'yicha tuzilayotgan barcha o'quv-metodik va ilmiy-metodik hujjatlar amaliy faoliyat bilan uzviy aloqada bo'lislarni ta'minlash;

- Oliy ta'limining mutaxasisliklari bo'yicha "yosh tadqiqotchilar" jamoasini tashkil etish va bunga iqtidorli talabalarni jalb etish;

- o'qitilayotgan fan sohalari bo'yicha mutaxasisliklari turdosh bo'lgan talabalar o'rtasida doimiy tarzda olimpiada o'tkazishni tashkil etish;

- Oliy ta'limining doimiy va talabalar tarkibi uchun tarbiyaviy ishlar dasturini yaratish;

- dasturda ma'naviy-ma'rifiy tafakkurni shakllantirish va tarbiya bilan bog'liq muammolarning echimini hal qilishga qaratilgan tadbirlarni aks ettirish;

- Viloyat ma'naviyat va ma'rifat markazi, hamda turdosh o'quv yurtlari bilan yosh avlodning tarbiyasi to'g'risida tajriba almashish va hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- hulqi past talabalarning ota-onalari bilan doimiy ravishda ushrashuvlar tashkil qilish va farzandlarining tarbiyasiga ijobiylarini kuchaytirish;

- Oliy ta'limining tarbiyaviy jarayoniga nufuzli masjidlarning imom xatiblarini jalb qilish va ular ishtirokida yaxshi bilan yomon, halol bilan harom, adolat bilan qabohat, ozodlik bilan tutqunlik, halqi va Vataniga sodiqlik mavzularida talabalar o'rtasida davra suhbatlari o'tkazish;

- Oliy ta'limi qoshida «Kim haq?», «Yosh ijodkorlar klubи», «Quvnoqlar va zukkolar» hamda «Zakovat» ko'rik tanlovlarni darsdan so'ng reja asosida o'tkazishni tashkil qilish. Tanlovga kurslarning barcha guruuh talabalarining ishtirok etishlarini ta'minlash. G'oliblarni ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish;

- qizlar uchun "Orasta uy bekasi" yoki "Qizlar davrasi" ko'rik tanlovlarning o'tkazishni tashkil etish;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

- chekish va ichishning inson organizmiga salbiy ta'sirlari mavzuida tibbiyot xodimlarni jalg etish yo'li bilan ular tomonidan ma'ruzalar tashkil qilish;
- talabalarning muomila madaniyatini yuksaltirish borasida etika fanini o'quv rejasiga kiritish va mashg'ulotlar tashkil etish;
- Oliy ta'lif tizimida o'rnatilgan ichki-tartib qoidalarini qo'pol ravishda buzgan talabalarni jazolash tizimiga ko'proq "jamoat izza"sini qo'llash mexanizmini yaratish.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T., -2017 y. - 103-b.
2. Kozixodjayev J.X., Ibragimov M.O. Jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish. O'quv-amaliy qo'llanma. Namangan nashriyoti. - N., - 2013 y. -3-4-b.
3. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.4 Legal sciences).
4. Козиходжаев, Ж. Х. (2023). ТЕРГОВ ТУСМОЛЛАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОХИЯТИ. Gospodarka i Innowacje., 31, 29-32.
5. Khomidovich, B. A. (2023). DEVELOPMENT OF PRIVATE PROPERTY AND BUSINESS. World Bulletin of Management and Law, 18, 105-107.
6. Каримова, Г. Й. (2021). MORALITY AS AN IDEOLOGICAL METHOD OF FIGHTING SPIRITUAL THREATS. Экономика и социум, (6-1), 707-710.
7. Kozixodjayev J.X., Ibragimov M.O. Korruptsiyaga qarshi kurashishda huquqiy ong, bilim va tafakkurning ahamiyati. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Farg'ona nashriyoti. – T., -2020 y. -47-50-b